

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti



rektori

X.B.Yunusov

2024 yil

08

BOSHQARUV HISOBI - 2
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Mutaxassisliklar:	70410201	– Buxgalteriya hisobi

Samarqand-2024

Fan/modul kodi BH21105		O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 5	
Fan modul turi majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Boshqaruv hisobi -2	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga boshqaruv hisobi nazariyasi va amaliyotini ilg'or darajadagi tahlil qilish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kerakli usullar va natijalarning qo'llanilishini yaxshiroq nazorat qilish uchun talabalardan keyingi darslarda muhokama qilinishi mumkin bo'lgan amaliy va vaziyatli topshiriqlarni bajarish talab qilinadi. Shuningdek, darslik yoki boshqa manbalarni mustaqil o'qish, olingan nazariy bilimlarga asoslanib tadqiqotlar o'tkazish va olingan ilmiy natijalarga tayanib taqdimotlar o'tkazish talab qilinadi.</p> <p>Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash jarayoniga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. “Boshqaruv hisobi-2” faniga kirish</p> <p>Ilg'or boshqaruv hisobi va uning ahamiyati, Ilg'or boshqaruv hisobi fanining predmeti, metodi va vazifalari, Rivojlangan mamlakatlarda ilg'or boshqaruv xisobini tashkil etish tajribasi. Boshqaruv va moliyaviy hisoblarning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari va farqlari. Boshqaruv hisobining asosiy vazifalari.</p> <p>2-mavzu. Boshqaruv hisobi-2ni tashkil qilish</p> <p>Ilg'or boshqaruv hisobining funkuiyalari. Boshqaruvning axborot tizimi Zamonaviy boshqaruv hisobi. Boshqaruv hisobini tashkil etishda korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga mos kelishi. Boshqaruvning axborot</p>				

Zamonaviy boshqaruv hisobi. Boshqaruv hisobini tashkil etishda korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga mos kelishi. Boshqaruvning axborot tizimi.

3-mavzu. Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish

Xo'jalik jarayonlari, Xo'jalik faoliyati asosiy ko'rsatkichlari. Ta'minot jarayonining hisobi, Ishlab chiqarish jarayonining hisobi. Xarajatlar klassifikatsiyasi. Mahsulotning ishlab-chiqarish xarajatlarini aniqlash. Mahsulotning to'liq tannarxini aniqlash. To'liq va o'zgaruvchan xarajatlarni hisobga olish.

4-mavzu. Ilg'or boshqaruv hisobi"da xarajatlar hisobini yuritish.

Xarajatlarni hisoblash tizimi. Ishlab chiqarish xarajatlarning dastlabki va yig'ma hisobi, Xarajatlarning hisoblashning asosiy xususiyatlari. Bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

5-mavzu. Moddiy xarajatlar hisobi

Moddiy xarajatlarning tavsifi. Moddiy xarajatlar to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish. Moddiy xarajatlarning faoliyat xususiyatiga ko'ra asosiy turlarga ajratish va uning hisobini yuritish. Xarajatlarni taqsimlash tartibi va usuli. Mahsulot tannarxi, uning mohiyati, ishlab chiqarishni boshqarishdagi ahamiyati.

6-mavzu. Mehnat xarajatlari hisobi.

Mehnat xarajatlari haqida tushuncha. Mehnat xarajatlari to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish. Mehnat xarajatlarni hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Xarajatlar to'g'risidagi hisobot. Xarajatlar to'g'risidagi hisobotning shakllantirilishi. To'g'ri xarajatlarning hisobini yuritilishi

7-mavzu. "Activity Based Costing (ABC)" tahlili

"Activity Based Costing (ABC)" tahlilining tavsifi. ABC tahlilining yuritilishining xorij tajribasi.

8-mavzu. Xarajatlar to'g'risidagi hisobot

Xarajatlar to'g'risidagi hisobot. Xarajatlar to'g'risidagi hisobotning shakllantirilishi. To'g'ri xarajatlarning hisobini yuritilishi.

9-mavzu. Tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish.

Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) va uni hisobga olish vazifalari. Tayyor mahsulotni baholash va uning nomenklaturasi. Tayyor mahsulotning ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi. Mahsulotlar ishlab chiqarish, ish va xizmatlar bajarishda vujudga keladigan xarajatlarning mohiyati va ularning tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli.

10-mavzu. Standart Costing” usuli.

Standart Costing” usulining qo'llanilishi. Standart Costing” usulining qo'llanilishining xorij tajribasi. Mahsulotlar ishlab chiqarish, ish va xizmatlar bajarishda vujudga keladigan xarajatlarning mohiyati va ularning tannarxini kalkulyatsiya qilishning “Standart-kost” usuli bo'yicha xarajatlarni hisobga olish. “Standart-kost” usulining mohiyati, mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali, jarayonli, normativ, “Direkt-kosting” usullaridan afzalliklari va kamchiliklari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.I. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ilg'or boshqaruv hisobining iqtisodiyotdagi ahamiyati va uning dolzarbligi.
2. Ilg'or boshqaruv hisobi yo'nalishidagi nazariy qarashlar va amaliy tadqiqotlar.
3. Ta'lim jarayonida Ilg'or boshqaruv hisobining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Biznes jarayonlarini tashkil etishda Ilg'or boshqaruv hisobining o'rni.
5. Ilg'or boshqaruv hisobi va ijodkorlik.
6. Birlamchi va ikkilamchi axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish.

Amaliy mashg'ulotlar bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III.II. Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan

IV. Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ilg'or boshqaruv hisobining iqtisodiyotdagi ahamiyati va uning dolzarbligi.
2. Ilg'or boshqaruv hisobi yo'nalishidagi nazariy qarashlar va amaliy tadqiqotlar.
3. Ta'lim jarayonida Ilg'or boshqaruv hisobining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Biznes jarayonlarini tashkil etishda Ilg'or boshqaruv hisobining o'rni.
5. Ilg'or boshqaruv hisobi va ijodkorlik.
6. Birlamchi va ikkilamchi axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasini professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori A.I. Alilikulov, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasini katta o'qituvchisi U. Eshmuradov tomonidan 70310101-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi uchun "Boshqaruv hisobi-2" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni chuqurlashtirish, uning ko'lasmini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Boshqaruv hisobi-2" fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimida ham yangicha yondashuv, innovatsiyalar va ilg'or ishlanma va dasturlarni izchil tatbiq etishni zamonning o'zi taqozo qilmoqda. Bu esa barcha sohada ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash naqadar dolzarb ekanini ko'rsatmoqda.


"Boshqaruv hisobi-2" fani bo'yicha fan dasturi 70410201-buxgalteriya hisobi mutaxassisligi uchun mo'ljallangan. Mazkur fan o'quv rejada majburiy fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun 20 soat ma'ruza, 40 soat amaliy dars va 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Boshqaruv hisobi-2" fani dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki, fan dasturini tayyorlashda fanni o'rganish kema-kerligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish kema-kerligiga mos keladi. Fan dasturi o'z ichiga 10 ta mavzuni qamrab olib, talabalarga xalqaro talablarga mos keladigan nazariy bilimlarini berish, ishlab chiqarishni boshqarish va kelajakda qarorlar qabul qilish uchun ma'muriy xizmatlarni taqdim etish, mahsulot (ishlar va xizmatlar)ning va belgilangan me'yorlar, standartlar, amallardan og'ishishlarni haqiqiy tannarxini hisoblash, sotilgan buyumlar yoki ularning guruhlarini, yangi texnologik qarorlar, mas'uliyat markazlari va boshqa pozitsiyalar bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlash bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma shakllantirish hamda ularni amaliy bilim va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Mazkur fan dasturi "Boshqaruv hisobi-2" fani bo'yicha mutaxassislik egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda, "Boshqaruv hisobi-2" fan dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, undan 70410201-buxgalteriya hisobi mutaxassisligi talabalarini o'qitishda fan dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va
statistika" kafedrasini mudiri,
i.f.b.f.d. (PhD), dotsent



M.Sh. Mardonov

	uning taqdimoti, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.
3.	<p>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tanlangan mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyotning zamonaviy yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan kasbiy tayyorgarlik haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • mutaxassislikning ilmiy muammolari bo'yicha masalalarni shakllantirish va hal qila olishi, yechim qabul qila olish, bilimlar zahirasini yaratish va undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> • tadqiqotlar uslublarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi, ilmiy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish bo'yicha hisobotlar va amaliy ko'rsatmalar tuzishi, kasbiy masalalarni kompyuterli modellashtirish uslublari, optimal echimni qidirishning ratsional usullari bilan ishlay olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yyechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • so'rov o'tkazish.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha tyest yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Ergasheva Sh. T., Abdusalomova N. B.. Boshqaruv hisobi : darslik / - Toshkent : Iqtisodiyot, 2020.</p> <p>2. Xasanov B., G'aniyev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2018.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024 yil.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent:</p>

	<p>“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022 yil.</p> <p>3.3. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. –Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, 2020.</p> <p>4.4.Tashnazarov. S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o‘quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. -Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2019.</p> <p>5.5. Xasanov B.A., Ibragimov A.K., Rizayev N.K. Amaliy boshqaruv hisobi. – T.: “Moliya”, 2013 yil.</p> <p>6.6. Colin Drury. Management and Cost Accounting, eighth edition. 2012.</p> <p>Axborot manbaalari</p> <p>1.www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi</p> <p>2.www.imv.uz – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti</p> <p>3.www.norma.uz – axborot-huquqiy portali</p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil “2”-avgustdagi “12”-sonli bayoni bilan ma’qullangan.
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar:</p> <p>A.I.Alikulov – SamDVMCHBU, “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori</p> <p>Sh.X.Yuldashev – SamDVMChBU, “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” assistenti</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. Toshnazarov S.N.– Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p>2. Mardonov M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası mudiri i.f.b.f.d. (PhD), dotsent</p>

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrası professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov tomonidan 70410201-buxgalteriya hisobi mutaxassisligi uchun “Boshqaruv hisobi-2” fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar ta’lim sohasini, xususan davlat ta’lim standartlarini ham takomillashtirib borishni zarurat qilib belgilaydi. Bugun eski ma’muriy-buyruqbozlik, taqsimlash tizimiga xos boshqaruv tuzilmalari o‘rniga boshqaruvga yangicha yondashuvlar, uslub va vositalarga ega bo‘lgan zamonaviy bozor mexanizmlari, iqtisodiy ta’sir va rag‘batlantirish omillari talab etilmoqda. Bunday sharoitda buxgalteriya hisobi amaliyotining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri, uning muhim tarkibiy qismi hisoblangan boshqaruv hisobining ahamiyati beqiyos daraja o‘rta boradi. Binobarin, boshqaruv hisobi korxona faoliyatini tekzor va istiqbolli boshqarishda asosiy o‘rinlardan birini egallashi, xalqaro standartlar talablariga to‘liq muvofiq kelishi, xarajalar va mahsulot tannaxxini boshqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashi lozim.

“Boshqaruv hisobi-2” fani magistratura mutaxassisligining 70410201-buxgalteriya hisobi mutaxassisligiga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv rejada 150 soat, shu jumladan, 20 soat ma’ruza, 40 soat amaliy dars va 90 soat mustaqil ta’lim soatlari ajratilgan bo‘lib, tanlov fanlar blokidan o‘rin olgan.

Ushbu fan bo‘yicha tuzilgan fan dasturi magistrlar ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni to‘g‘risida tasavvurni shakllantirish, nafaqa xo‘jalik jarayonlarini tashxislab berishni, balki joriy va istiqbolga mo‘ljallangan rejalashtirish, boshqaruv hamda investitsiya qarorlari dasturlarini ishlab chiqishni, ularni qo‘llaniladigan usullar, hisob-kitoblar va ushbu qarorlarga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlili bo‘yicha bilishi, ko‘nikma hosil qilishi va malakaga ega bo‘lishini ta’minlaydigan tegishli mavzularni qamrab olgan.

Umuman olganda mazkur fan dasturi qo‘yilgan talablarga mos holda tayyorlangan bo‘lib, shu dastur asosida 70410201-buxgalteriya hisobi mutaxassisligi magistrantlarini o‘qitishda foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.N.Toshnazarov

